

G`AROYIB SAYOHAT

Ustoz Said Ahmad aka Amerikadan kelgan kuni telefonda aytib bergan xangoma

- Alyo, o`zingmisan, bolam Vaalaykum assalom, mullo bo`lgin! “Ziyoratlar qabul”, deysanmiq Murod hosil! Rahmat. Safar qandoq bo`lardi, zo`r bo`ldi! “qani bir eshitaylik”, deysanmiq Mayli, sazang o`lmasin. Ammo-lekin sen yaramasning bir odating yomon. Mendan zo`r-zo`r hikoyalarni eshitib olasanda, qo`shib-chatib o`zingniki qilib yozasan. Bu safar shunaqa qilmasang, hammasini bir boshdan gapirib beraman.

Aslida-ku, Amerika to`qrisida avval ham ancha-muncha narsa o`qiganman.

Yoshligimda Achchiq Maxsum degan yozuvchining (senlar uni Maksim Gorkiy deysan) “Sariq iblis shahri”, baqirib she`r o`qiydigan Mayakovskiyning “Nima bizga Amerika”, degan asarlarini varaqlaganman. Hatto o`zimizdan chiqqan Uzoqov degan muxbir ham “Amerikasini ham ko`rdik”, degan maqola yozgan edi. Shular Amerikani ko`rganda, nega men bormasligim kerak? Shundoq qilib, biqiniga “Pan-Amerikan” deb yozib qo`yilgan, gardani xo`kiznikiga o`xshab shishib ketgan “Boing”

samolyotiga o`tirdik.

Ishonsang-ishonmasang, ichi bamisoli metroning o`zi! Shifti shunaqangi balandki, Sabonis degan naynov basketbolchi bemalol basketbol o`ynasa bo`laveradi!

Shunaqangi uzunki, u boshi bilan bu boshi ko`rinmaydi!

“Boing” osmonga ko`tarilishi bilan yonimga qoshlari ipdekkina, sochlari tilla kokildek, oyoqlari uzun-uzun, tizzasidan ikki qarich balandda to`xtab qolgan etak ostidan oppoqqina sonlari ko`rinib turgan xonimcha keldi. Og`izchasi angishvonadek.

Lablari xuddi gilos tishlab turganga o`xshaydi. Odamning dilini qitiqlaydigan